

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

Avlayeva Gulhayo Xalil qizi

Iqtisodiy va pedagogika universiteti NTM magistranti

Eshmanov O.U.

IPU NTM Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedra dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14630709>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik jihatlari tahlil qilingan. Maqolada inklyuziv ta'limning maqsadlari, tamoyillari va uning o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. O'rganish jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llashda duch kelinadigan asosiy muammolar va ularni hal qilish bo'yicha takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiya, ta'lim-tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, tug'ma nuqsonli bolalar.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PROCESS
OF DEVELOPING INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL
ORGANIZATIONS

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of the process of developing the concept of inclusive education in preschool educational organizations. The article examines the goals and principles of inclusive education and its application in the educational process, taking into account the individual needs of students. The main problems that arise when applying inclusive education in the learning process and proposals for their solution are described.

Key words: inclusive education, integration, education, children with disabilities, children with birth defects.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ
ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические и психологические аспекты процесса разработки концепции инклюзивного образования в дошкольных образовательных организациях. В статье рассматриваются цели и принципы инклюзивного образования и его применение в образовательном процессе с учетом индивидуальных потребностей учащихся. Описаны основные проблемы, возникающие при

применении инклюзивного образования в процессе обучения, и предложения по их решению.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, образование, дети с ограниченными возможностями, дети с врожденными дефектами.

Kirish. Maktabgacha ta'lim jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi, chunki bu bosqich bolalarning asosiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Inklyuziv ta'lim esa barcha bolalar, jumladan, jismoniy yoki psixologik rivojlanishda nuqsonlari mavjud bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni maqsad qiladi. So'nggi yillarda inklyuziv ta'lim jarayonini takomillashtirishga e'tibor oshmoqda, ammo bu jarayon o'ziga xos pedagogik va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqola inklyuziv ta'limni rivojlantirishda duch kelinadigan qiyinchiliklarni aniqlash va pedagogik-psixologik yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni taqdim etishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida bir qancha olimlar, xususan, xorijiy tadqiqotchilar T.A.Vlasova, M. S. Pevzner, V. I. Lubovskiy, T. V. Yegorova, K. S. Lebedinskaya, N. A. Nikashina, K. K. Mamedov, T. B. Shoumarov, N. A. Sipina, R. D. Triger va boshqalar inklyuziv ta'lim bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. S.V.Alexinaning fikricha, "inklyuziya - ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning birgalikda sifatli ta'lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma'noda bo'lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya" hisoblanadi. T.But va M.Eynskouning fikrlaricha, "o'tkaziladigan islohotlar va o'zgartirishlarning asosi hisoblanadi .., hamkorlikda ishlash g'oyalariga qo'shilishadigan, o'zining barcha ishtirokchilari rivojlanishini rag'batlantiradigan ..., xavfsiz va murosali jamoani yaratishga yordam beradi, ta'lim va o'qitish siyosati va amaliyotini o'zgartiradi". P.f.n, dotsent R.Shomaxmudova "Nogiron va maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir"-deb ta'rif berib o'tgan. L.SH.Nurmuhammedovaning "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan.

Usullar. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Adabiyotlar sharhi: Mavjud ilmiy maqolalar, normativ hujjatlar va inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro tajribalar o'rganildi.

Sotsiologik so'rovnomas: 150 nafar maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va psixologlari ishtirokida so'rov o'tkazildi.

Amaliy kuzatish: 10 ta maktabgacha ta'lim muassasasida inklyuziv ta'lim jarayoni kuzatilib, bolalarning rivojlanishidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Eksperimental metod: Muayyan inklyuziv metodikalarni joriy etish orqali bolalarning rivojlanish natijalari baholandi.

Asosiy qism. Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasida 1996-yildan boshlab maxsus ta'limga alternativ tarzda inklyuziv maktablar tashkil etila boshlandi. Ushbu maktablar turli soha vakillari va hamjamiyat ishtirokchilarining birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida shakllandi. Bu sa'y-harakatlar alohida e'tiborga muhtoj bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasini oshirishda, shuningdek, mavjud muammolarni erta aniqlab korreksiya qilish orqali ularning ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishda ijobiy natijalar bermoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida inklyuziv ta'limni rivojlantirish umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bu esa mamlakatimizda ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali yechimlarini amalga oshirishga xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin. 2020-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, unda ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritildi [2]. Ushbu qonun loyihasi O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi va mutaxassislar tomonidan inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, qonunda inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi ta'lim shakli sifatida belgilanganiga qaramay, uning mazmuni inklyuziya tamoyillariga to'liq mos kelmasligi aniqlangan. Inklyuziv ta'lim dastlab oliy ta'lim tizimida I va II guruh nogironlari uchun ikki foizlik kvota ajratilishi orqali joriy etilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari yoshidagi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, uy sharoitida individual tartibda yoki statsionar sharoitda ta'lim olish imkoniyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son Qaroriga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu Konsepsiya inklyuziv ta'limni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu Konsepsiya nogironligi bor insonlarning barcha darajalarda ta'lim olish huquqini tan olishni, hech qanday kamsitishsiz va teng imkoniyatlar asosida uzluksiz inklyuziv ta'lim olishlarini ta'minlashga qaratilgan majburiyatlarni belgilaydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [3] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorining 1-ilovasi – "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi hujjatlarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda faoliyat olib boradigan maxsus o'qituvchilarning vazifalari aniq belgilangan. Ushbu hujjatlarga muvofiq, maxsus o'qituvchilar o'quvchilarning individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishiga yordam ko'rsatishi, ularning nuqsonlarini tuzatish (korreksiya) va bola rivojlanishiga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni bartaraf etishda ko'maklashishi zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, o'qituvchilar barcha darslarda, sinfdan tashqari tadbirlarda va boshqa faoliyatlarda ishtirok etib, ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishi lozimligi belgilangan.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, 2017-yil sentyabr oyida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya" loyihasi ishlab chiqildi [4]. Ushbu tashabbus yoshlar huquqlarini, eng avvalo, ularning tinch va sog'lom hayot kechirish hamda ta'lim olish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun har doim ustuvor vazifa hisoblanadi". Bu taklif yoshlarning huquq va imkoniyatlarini mustahkamlash yo'lida muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi hamda Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi qoidalariga asosan ta'lim olishda barcha teng huquqlidir. Bu qonun inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va bu qonunga muvofiq inklyuziv ta'lim sohasidagi vakolatli organ etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta'limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

2020-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritildi. Mazkur qonun loyihasi O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi va mutaxassislar tomonidan inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash va ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Inklyuziv ta'lim, avvalo, o'quv dasturlarini moslashtirish va har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Bu esa o'quv materiallarini oddiy va maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlashtirish imkoniyatlariga mos tarzda ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashi, differensial ta'lim va interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanishi zarur. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga mo'ljallangan o'qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda maxsus o'qituvchilar o'quvchilarning individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishiga yordam ko'rsatish, ularning rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilish va bola rivojlanishiga xos o'ziga xosliklarni bartaraf etish bilan shug'ullanishlari kerak. Shu bilan birga, sinfda ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish, bolalar o'rtasida bir-birini hurmat qilish va birgalikda ishlash madaniyatini shakllantirish ham inklyuziv ta'limning muhim qismi hisoblanadi [5]. Psixologik jihatdan esa bolalarning psixologik holatini tahlil qilish va ularga mos psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish talab etiladi. Bu jarayonda maktab psixologlari motivatsion mashg'ulotlar va stressni kamaytirishga qaratilgan faoliyatlar orqali bolalarning ta'lim jarayoniga moslashuvini ta'minlashlari zarur. Shu bilan birga, ota-onalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb qilish va ularga ta'lim tizimining o'ziga xosliklari haqida tushuncha berish, shuningdek, maxsus ehtiyojli bolalar uchun mo'ljallangan texnik vositalar bilan ta'minlash va infratuzilmani rivojlantirish ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar aniqlandi:

Pedagogik jihatlar: Maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvga ega bo'lgan pedagoglar yetishmasligi aniqlangan. Inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmalar yetarli darajada ishlab chiqilmagani qayd etildi.

Psixologik jihatlar: Ko'pchilik bolalar, jumladan, maxsus ehtiyojli bolalar, jamoadagi faoliyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ota-onalar va pedagoglar orasida inklyuziv ta'limga nisbatan turli xil munosabatlar mavjud bo'lib, ularning bir qismi bu jarayonni qo'llab-quvvatlamaydi.

Amaliy kuzatish natijalari: Maxsus tayyorlangan dars rejalarini qo'llash orqali bolalarning ijtimoiylashuvi yaxshilandi. Psixologik yordam dasturlari inklyuziv muhitni rivojlantirishda ijobiy natijalar berdi.

Eksperiment natijalari: Inklyuziv ta'lim dasturiga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish natijasida bolalarning o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari oshdi. Maxsus trening va seminarlar pedagoglarning inklyuziv ta'lim sohasidagi malakasini oshirishda samarali bo'ldi.

Munozara. Natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Kadrlar malakasini oshirish: Pedagoglar va psixologlarni inklyuziv ta'lim sohasida maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish.

Metodik ta'minotni takomillashtirish: Inklyuziv ta'lim uchun mos dars ishlanmalari va o'quv materiallarini ishlab chiqish.

Jamoatni xabardor qilish: Ota-onalar va jamiyatda inklyuziv ta'limning ahamiyatini tushuntirish va bu borada ijobiy muhit yaratish.

Resurslarni yaxshilash: Maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur jihoz va texnologiyalar bilan ta'minlash.

Integratsion yondashuv: Psixologik va pedagogik xizmatlarni birlashtirgan holda bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun pedagogik va psixologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, malakali pedagoglar tayyorlash, maxsus metodik materiallarni ishlab chiqish va ijtimoiy xabardorlikni oshirish inklyuziv ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimini yanada adolatli va teng imkoniyatlarga asoslangan holda rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish jarayoni, maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar, psixologlar, ota-onalar va ta'lim tizimi mutaxassislarining o'zaro hamkorligi zarur. Adabiyotlarda inklyuziv ta'limning asosiy prinsiplari, pedagogik metodlar va psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatilgan. Inklyuziv ta'lim jarayonida bolalarning individual ehtiyojlariga mos yondashish, ta'limda tenglikni ta'minlash va o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish kerak. Inklyuziv ta'limning pedagogik jihatlarini bolalarning o'zaro munosabatlari va jamiyatga moslashishiga yordam beradi, shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarning malakali tayyorlanishi, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlarning qo'llanilishi va ta'lim materiallarini moslashtirish zarur.

Takliflar:

- Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda o'qituvchilarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlash uchun zamonaviy pedagogik metodlar va psixologik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan kurslar va treninglar tashkil etilishi kerak;
- Inklyuziv ta'lim jarayonida maxsus ehtiyojli bolalar uchun psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash lozim;
- Inklyuziv ta'limda ota-onalar o'qituvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilish;
- Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun maktablarda kerakli infratuzilma va resurslar (maxsus texnik vositalar, moslashtirilgan darsliklar, maxsus jihozlar) ta'minlanishi lozim;
- Inklyuziv ta'limning samaradorligini muntazam ravishda monitoring qilish va baholash tizimi ishlab chiqish.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-673-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5044711>
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr. O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
5. O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonuni 2016 yil 26 dekabrda PQ-415-son <https://www.lex.uz/docs/3083192>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

7. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3436192>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007 yil 17 maydagi "Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to'g'risida" 2007 yil 17 maydagi PQ-100-son Qarori. <https://lex.uz/docs/1203085>
9. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5044711>
10. 2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. O'z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-son
11. Sh. Mirziyoyev. "Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2018-yil 8- dekabr.
12. Amirsaidova SH.M. "Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g'oyalarining o'rni va roli". Ped. fan. nom... diss. – T., 2006. -B.78.
13. Ilektra Spandagou, Cathy Little, David Evans, Michelle L. Inklusive Education in Schools and Early. Childhood Settings.springer Springer Singapore. 2020.
14. R.Shomaxmudova, D.Tulaganova, A.Berdieva. Jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan inklyuziv va maxsus ta'lim tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. Toshkent: XT «Roziqov O.J». 2007 y.
15. UNESCO. (2021). Inclusive Education: Principles and Practices.